



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_ F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varagi'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: **31**

**FANLAR:**

*Blok 1: Ona tili va adabiyoti*

*Blok 2: Tarix*

*Blok 3: Ingliz tili*

*Nemis tili*

*Fransuz tili*

Savollar kitobi raqami: **5296010**

Toshkent – 2015



## ONA TILI VA ADABIYOTI

- 1.** Quyidagi ravishlardan nechtasi tuzilishiga ko‘ra sodda ravish hisoblanadi?
- xiyol, uzoqda, mardlarcha, ozgina, o‘zicha, har on, shu payt, zo‘rg‘a, do‘stonia**
- A) 7 ta    B) 4 ta    C) 6 ta    D) 3 ta
- 2.** "Avesto"da keltirilgan "parastishgoh" qanday joy?
- A) turar joy    B) qurbanlik qilinadigan joy  
C) ta‘lim maskani    D) lalmikor yer
- 3.** Quyidagi berilgan nechta gapning egasi va kesimi tarkibidagi qo‘srimchalar ismnинг munosabat shakli va fe'lning munosabat shakli sifatida o‘zaro omonimlik hosil qilgan?
1. Bitta o‘g‘limni qoldirishga ko‘zim qiymayapti-yu, qanday qilib uchovingni tashlab ikkalamiz shaharga ketamiz.
  2. Yirtib tashlagandan ko‘ra yondirib tashlaganing yaxshidir.
  3. Tanam zirqirab og‘riyotganiga ham e’tibor bermadim.
  4. Uchoving bu vazifani uddalading.
- A) to‘rtta    B) uchta    C) bitta    D) ikkita
- 4.** Bir g‘uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar.
- Ushbu gapda hid bildiruvchi sifat(lar) qaysi bo‘lak vazifasida kelgan?
- A) aniqlovchi    B) ega, aniqlovchi    C) hol    D) ega
- 5.** Qaysi maqolda to‘rt o‘rinda yasama so‘z qo‘llangan?
- A) O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.  
B) Birlashgan o‘zar,  
    birlashmagan to‘zar.  
C) Birni ko‘rib, fikr qil,  
    Birni ko‘rib, shukur qil.  
D) Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma!
- 6.** Seni menga bergen, mening xalqimga,  
**Bandalari yo‘qotolmas, tortib ololmas...**
- Ushbu misralarda ro‘y bergen fonetik o‘zgarishlar haqidagi to‘g‘ri hukmni toping.
- A) 2 ta tovush tushish, 3 ta tovush almashish hodisasi ro‘y bergen  
B) 4 ta tovush tushish, 2 ta tovush almashish hodisasi ro‘y bergen  
C) 2 ta tovush tushish, 2 ta tovush almashish hodisasi ro‘y bergen  
D) 3 ta tovush tushish, 2 ta tovush almashish hodisasi ro‘y bergen
- 7.** Qaysi juftlikdagi paronimlar ma’nosini farqlovchi undoshlar faqat ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra farqlanadi?
- A) yaroqli-yarog‘li    B) tub-tup    C) afzal-abzal  
D) xol-hol
- 8.** Mashrab va bu shoirning asarlari bir-biriga hamohang edi.
- Berilgan gapda tobe bog‘lanishlar miqdori nechta?
- A) 6 ta    B) 4 ta    C) 5 ta    D) 7 ta
- 9.** Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhod tug‘ilganda otasi xursandchiligidan necha yillik xirojni shahar aholisiga bag‘ishlaydi?
- A) to‘rt yillik    B) ikki yillik    C) bir yillik    D) uch yillik

- 10.** Nodiraning qaysi g‘azalida “ahd-u paymonlar” bilan “tarki vafo”, “qon” bilan “gavhari ashk”, “subhi nashotim” bilan “shomi g‘am”, “navbahor” bilan “xazon” o‘rtasidagi qarama-qarshi ma’no (tazod) fikrni teranlashtirish, bevosita ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan?
- A) “Fig‘onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin...”  
B) “Kel, dahrni imtihon etib ket...”  
C) “Vasl uyin obod qildim...”  
D) “Doda keldim...”
- 11.** Quyidagi gapda nechta ot turkumiga mansub so‘z qatnashgan?
- Qo‘qqisdan osmonni bulut qoplaydi-da, chelak-chelak suv quyadi.**
- A) 2 ta    B) 3 ta    C) 4 ta    D) 5 ta
- 12.** Qaysi qatordagi gapda yetakchi qismi qo‘shma fe'l bo‘lgan ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi qatnashgan?
- A) Hayotdan saboq olib, yaxshilardan ibrat olib yasha, qizim.  
B) Keyin ularning ham chandilgan iplarini yechib, ayira boshladik.  
C) Bizni ham taklif qilib qo‘yishni unutmang.  
D) Birpasgina bo‘lsa ham gaplashib, meni tinchitib qo‘ysang bo‘lgani.
- 13.** Cho‘lquvarlarni na issiq, na suvsizlik yenga oladi, balki ular o‘z jasoratlari, mehnatlari bilan tabiatni zabit etadilar.
- Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimi haqidagi to‘g‘ri hukmni belgilang.
- A) birinchi gapning kesimi yetakchi va ko‘makchi fe‘ldan iborat, ikkinchi gapning kesimi qo‘shma fe‘ldan iborat  
B) ikkala gapning kesimi qo‘shma fe‘ldan iborat  
C) birinchi gapning kesimi qo‘shma fe‘ldan iborat, ikkinchi gapning kesimi yetakchi va ko‘makchi fe‘ldan iborat  
D) ikkala gapning kesimi yetakchi va ko‘makchi fe‘ldan iborat
- 14.** Quyidagi qaysi qo‘srimchalar qo‘shilganda so‘z asosidagi bir keng unli boshqa keng unliga al mashadi?
- 1) ot va sifat yasovchi -q; 2) fe‘l yasovchi -ar; 3) sifat yasovchi -qi; 4) fe‘l yasovchi -a; 5) shaxs oti yasovchi -vchi; 6) sifat yasovchi -k
- A) 1, 2, 4, 5    B) 1, 2, 3, 4, 5    C) 1, 2, 3, 4, 5, 6  
D) 1, 3, 4, 5
- 15.** Quyidagi qaysi so‘zlar bo‘giz undoshi bilan boshlanishi lozim?
- 1) ..arorat; 2) ..ijjalatmoq; 3) ..iyylakorlik; 4) ..alfalik;  
5) ..iyobon; 6) ..‘randa
- A) 4, 5, 6    B) 2, 4, 6    C) 1, 3, 5    D) 1, 2, 3
- 16.** Quyida berilgan qaysi g‘azal vazni aruzning mafoylun-mafoylun-faulun(yoki mafoyl) vaznida yozilgan?
- A) “Qaro ko‘zum, kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il...”  
B) “Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmad...”  
C) “Ayoqingga tushar har lahza gisu...”  
D) “Jong‘a chun derman: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati? ...”
- 17.** Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinası” romanida Ulug‘bek kimga “Humo qushi kimning boshiga qo‘nur, buni yolg‘iz Haq taolo bilur. Humo qushi meni tark etsa – sening baxting” degan achchiq so‘zlarni aytgan?
- A) Abu Said Mirzoga    B) Ibrohim Po‘latga  
C) Abdullatifga    D) Sulton Jondorga
- 18.** Tabassumda ko‘rib rangin labingni nogahon g‘uncha, Qilib diltanglik zohir, ichidin bo‘ldi qon g‘uncha.
- Munis qalamiga mansub ushbu baytda qo‘llangan she’riy san‘atni toping.
- A) ishtiqoq    B) iyhom    C) tarse’    D) husni ta’lil

- 19.** Berilgan gaplarning qaysi birida tojik tilidan o'zlashgan bog' so'zi qo'llangan?
- A) Uzumini ye, bog'ini surishtirma.  
 B) Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz.  
 C) Yuz qopni bog'lab bo'lar,  
     Yuz og'izni bog'lab bo'lmas.  
 D) Bu ko'ringan tog'lar Asqar tog'idir,  
     Oyog'imda tilla kishan bog'idir.
- 20.** Dantening "Ilohiy komediya"sinı kim o'zbek tiliga tarjima qilgan?  
 A) A. Oripov    B) Oybek    C) G. G'ulom  
 D) Usmon Nosir
- 21.** Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkonimiz, Yetishgymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz. She'riy parchadagi munosabat shakllari tarkibida uchramaydigan undoshni toping.  
 A) y    B) z    C) n    D) g
- 22.** Ishning sur'ati pasaymadi, ertalabgacha ko'sak chuvildi. Gapdag'i fe'llarning qaysi nisbatdaligini aniqlang.  
 A) aniq, majhul    B) o'zlik, majhul    C) aniq, o'zlik  
 D) aniq, aniq
- 23.** Qaysi javobda quyidagi qo'shma gapning turi to'g'ri ko'rsatilgan?  
**Siz o'z xalqingiz, Vataningiz, millatingizning ko'z qarog'larisiz, ammo unutmangki, tanbal, daqqi, bezori kishi ma'naviy nogirondir.**  
 A) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap  
 B) aralash murakkab qo'shma gap  
 C) bog'langan qo'shma gap  
 D) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
- 24.** Qaysi javobda ega qatnashgan undalmali gap berilgan?  
 A) Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang?  
 B) Qani, ayt, maqsading nimadir sening?  
 C) Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?  
 D) Yetar, ey cholg'uvchi, bas qil sozingni.
- 25.** Qaysi dostonda ota o'z o'g'lini "nor kalla qo'chqor" deb ataydi?  
 A) "Ravshan"    B) "Kuntug'mish"    C) "Rustamxon"  
 D) "Alpomish"
- 26.** - Men ko'rganman osmonlarning tinig'ini, Toshlar tegdi, terib oldim sinig'ini. Beshikdagi go'daklarga tig' sanchdilar, Shunda bildim mardlaringning qiling'ini. Fonetik o'zgarishga uchragan yasama so'zlar sonini aniqlang.  
 A) 3    B) 1    C) 2    D) 4
- 27.** Nodiraning qaysi g'azali mumtoz she'riyatimizda ko'proq ruboiy bitiladigan an'anaviy hazaji musaddasi axrabi maqbizi mahzuf vaznida yozilgan?  
 A) "Vasl uyin obod qildim..."  
 B) "Kel, dahrni imtihon etib ket..."  
 C) "Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin..."  
 D) "Doda keldim..."
- 28.** Do'stlkni e'zozlashning zarur shartlaridan biri do'stlar bilan ucrashib turishdir. Turli katta-kichik marosimlar: bayramlar, tug'ilgan kunlar, to'ylar bilan bir qatorda, do'stona yig'inlar ham bu munosabatlarni mustahkamlaydigan vositadir. Berilgan parchada nechta so'z yasovchi qo'shimcha ishtirot etgan?  
 A) 4    B) 6    C) 5    D) 7
- 29.** Ot kesim kesimlik qo'shimchalarisiz yoki bog'lamasiz qo'llanganda ot kesim va ega orasida tire qo'yiladi. Berilgan qoidaga quyidagi maqollardan qaysi biri mos keladi?  
 A) Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.  
 B) Aytilgan so'z – otilgan o'q.  
 C) Bilgan topib gapirar, Bilmagan – qopib.  
 D) Vaqting ketdi – naqding ketdi.
- 30.** Nodar Dumbadzening "Quyoshni ko'ryapman" nomli asari haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.  
 A) bu asar asosida o'zbek san'atkorlari tomonidan videofilm ishlangan  
 B) II jahon urushi yillarda gruzin qishloqlaridagi og'ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o'xshamaydigan taqdir egalari obrazi aks ettirilgan hikoyalar to'plami sanaladi  
 C) bu asar qissa janrida yozilgan  
 D) dastlabki yirik romani
- 31.** Uning ayollarga ehtiromi ular sharafiga barpo etilgan bog'-rog'lar va nodir me'moriy yodgorliklarda ham aks etadi. Ushbu gapda yasama fe'llar nechta gap bo'lagiga nisbatan hokim bo'lak vazifasini bajargan?  
 A) 5 ta    B) 4 ta    C) 2 ta    D) 3 ta
- 32.** Qaysi javobda bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarga ikkitadan misol keltirilgan?  
 A) nahotki, basharti, uzra, agar, atigi, faqat  
 B) hatto, nihoyat, sayin, ya'ni, tufayli, va  
 C) nahotki, hatto, naq, ya'ni, tufayli, uzra  
 D) nahotki, negaki, qadar, naq, hamda, ichra
- 33.** "To'nyuquq" bitiktoshida "Inju o'guz" deb tilga olingen joy nomi qayer edi?  
 A) Enasoy daryosi    B) Amudaryo    C) Sirdaryo  
 D) Irtish daryosi
- 34.** Quyida berilganlardan to'ldiruvchi qatnashgan gaplarni toping  
 1) Uyga uyalganidan kirmadi.  
 2) O'zboshimchalikka yo'l qo'yilmasin.  
 3) Yakshanba kuni dam olishga o'sha tog'ga borishdi.  
 4) Bu yerda o'rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak.  
 A) 2, 4    B) 1, 2, 3, 4    C) 1, 3    D) 1, 3, 4
- 35.** Usmon Nosirning "Monolog" she'rida kimga "guldan yaralgan pari" degan ta'rif berilgan?  
 A) Sapfoga    B) Ofeliyaga    C) Beatichega  
 D) Leonoraga
- 36.** *Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi.* Ushbu gapdag'i yasama so'zlar haqidagi qaysi hukmlar to'g'ri emas?  
 1) 4 o'rinda yasama so'z qo'llangan;  
 2) yasama so'zlar ot, sifat, fe'l turkumlariga mansub;  
 3) 2 o'rinda otidan sifat yasalgan;  
 4) yasama so'zlar aniqlovchi, ega, hol, kesim vazifalarida kelgan  
 A) 1, 4    B) 1, 2, 3, 4    C) 2, 3    D) 2, 3, 4

## TARIX

- 37.** Bolasog‘un shahri poytaxt bo‘lib xizmat qilgan davlatlarni aniqlang.  
 1) Qoraxitoylar davlati; 2) O‘g‘uzlar davlati; 3) Qoraxoniylar davlati; 4) Turk xoqonligi  
 A) 1, 2    B) 3, 4    C) 2, 3    D) 1, 3
- 38.** Inqilobiy qo‘mita butun O‘zbekiston xalqiga murojaat etib, O‘zbekiston SSR tuzilganligini ma‘lum qilgan yilda quyidagi qaysi voqealari yuz berganligini toping.  
 A) Fransiyada bo‘lib o‘tgan saylovlarda "Milliy blok" mag‘lubiyatga uchradi.  
 B) AQSh hukumati Da‘vatkorlik to‘g‘risida hujjatni qabul qildi.  
 C) Buyuk Britaniya Xitoya qarshi harbiy intervensiya uyushtirdi.  
 D) Buxorodagi Xalq uyida Umum O‘zbek sovetlarining birinchi qurultoyi ochildi.
- 39.** XIX asr o‘rtalarida Xivada rivoj topgan humarmandchilik turlari sonini aniqlang.  
 A) 65 ta    B) 32 ta    C) 80 ga yaqin    D) 50 dan ortiq
- 40.** XX asr boshlarida Italiya hukumatini boshqargan J. Jolitti davrida qanday qonunlar qabul qilinganligini toping.  
 1) Ish haqi minimumi to‘g‘risida; 2) Kasaba uyushmalarini tuzishga ruxsat etuvchi; 3) Ish tashlash o‘tkazilishiga ruxsat beruvchi; 4) Tungi smenada bolalar va ayollar mehnatidan foydalanmaslik haqida; 5) Saylovchilarning mulk va savodxonlik senzini bekor qilish haqida; 6) Ko‘ppartiyaviylik tizimi asosida saylovnini tashkil etish haqida; 7) Pomeshchik yer egaligini tugatish haqida.  
 A) 1, 3, 5, 7    B) 1, 2, 4, 6    C) 4, 5, 6, 7    D) 2, 3, 4, 5
- 41.** O‘z o‘g‘liga qarshi kurashish maqsadida Shoh Jahondan yordam so‘ragan shaxsni aniqlang.  
 A) Subhonqulixon    B) Abdulazizzon  
 C) Nodir Muhammad    D) Ubaydullaxon
- 42.** Quyida berilganlardan XIX asrda Afrikadagi eng muhim qul savdosi bazalarini aniqlang.  
 1) Misr; 2) Tunis; 3) Marokash; 4) Sudan; 5) Angola;  
 6) Mozambik; 7) Madagaskar  
 A) 1, 2    B) 3, 4    C) 5, 6    D) 4, 7
- 43.** Braziliyada S. Bernardis prezidentligi davrida qaysi shaharlarda harbiylar qo‘zg‘oloni boshlandi?  
 A) San-Paulo va Santo Anjelu    B) San-Salvador va Brazilia  
 C) Santo Anjelu va San-Marino  
 D) San Diyevo va San-Xose
- 44.** Oltin O‘rda ulus nomini olgan to‘rtta yirik viloyatga bo‘linib ketgan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.  
 A) Venetsiyalik sayyoh Marko Polo Uzoq Sharq va Xitoya sayohat qildi.  
 B) Mavarounnahrda Sarbadorlar harakati vujudga keldi.  
 C) Boyazid Yildirim va Amir Temur o‘rtasida kuchli to‘qnashuv bo‘ldi.  
 D) Angliya taxtiga Genrix VII Tyudor keldi.
- 45.** XIX asr boshlarida Samarqand shahri baland devor bilan o‘ralgan bo‘lib, oltita darvozasi mavjud edi. Ushbu darvozalar nomlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) Urgut; 2) Buxoro; 3) Paykobod; 4) Qarshi; 5) Shohizinda;  
 6) Qalandarxonha; 7) So‘zangaron; 8) Xo‘ja Ahror;  
 9) Registon  
 A) 2, 3, 5, 6, 7, 8    B) 2, 4, 5, 6, 7, 9    C) 1, 3, 5, 6, 8, 9  
 D) 1, 3, 4, 5, 6, 8
- 46.** Yunusxo‘ja bilan yaqin aloqada bo‘lgan qozoq sultonini Bukey qaysi bo‘lisning sultonini edi?  
 A) Qorakesak    B) Samat    C) Tabin    D) Qorako‘l

- 47.** 1936-yilgi Fransiya parlamentiga o‘tkazilgan saylovlarida g‘olib chiqqan "Xalq fronti" ichida kelishmovchilikning yuzaga kelishiga nima sabab bo‘lganligini toping.  
 A) hukumatning 8 soatlilik ish kuni haqidagi qarori  
 B) Ispaniyaning ichki ishlariga aralashuvu  
 C) xalqaro va ichki siyosatda yagona fikrga kela olmaganlik  
 D) Sovet davlatining tan olinishi
- 48.** Imomqulixon Toshkent va o‘z xonligining qaysi chegaralari uchun qozoqlar, jung‘orlar va qalmiqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi?  
 A) sShimoli-g‘arbiy    B) shimoli-sharqi  
 C) janubi-sharqi    D) janubi-g‘arbiy
- 49.** Ikkinchchi jahon urushi voqealarini eslang va Moskva ostonalarida hayot-mamot janglari bo‘lib o‘tgan davrni to‘g‘ri toping.  
 A) 1942-yilning qish oylarida  
 B) 1941-yilning yoz-kuz oylarida  
 C) 1941-yilning kuz-qish oylarida  
 D) 1942-yilning qish-bahor oylari
- 50.** Quyidagi voqealardan qaysilarining sodir bo‘lish vaqtini Chor Rossiyaning O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlarining uchinchi bosqichi davriga to‘g‘ri keladi?  
 1) Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi;  
 2) Germaniya kansleri Otto fon Bismarkning iste’foga chiqishi;  
 3) Qirolicha Viktoriya Hindiston imperatori deb e’lon qilinishi;  
 4) AQShning sanoat mahsulotlari hajmi jihatdan birinchi o‘ringa ko‘tarilishi;  
 5) San-Stefanoda Rossiya-Turkiya sulu shartnomasining imzolanishi  
 A) 2, 3, 5    B) 1, 2, 5    C) 1, 3, 5    D) 1, 3, 4
- 51.** Xan sulolasi davrida Xitoya mavjud yerlar kimning mulki hisoblangan?  
 A) qishloq jamoalarining    B) hukmdorning  
 C) harbiy lashkarboshilarining    D) amaldorlarning
- 52.** AQSh sanoat ishchilarining soni jihatidan birinchi o‘rinni egallagan davrda yuz bergan voqeani toping.  
 A) Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasida O‘rta Osiyodagi ta’sir doiralar masalasida kelishuvga erishildi.  
 B) Meksikada dehqonlar g‘alayoni boshlandi.  
 C) Buyuk Britaniyaning jami mustamlaka hududlari 33 mln km<sup>2</sup>ni tashkil etdi.  
 D) AQSh-Ispaniya tinchlik shartnomasi imzolandi.
- 53.** "Shimoliy Germaniya Ittifoqini tuzish haqida shartnoma" imzolangan yilda tarixda sodir bo‘lgan voqeani aniqlang.  
 A) Rus qo‘shinlari Avliyo-otani egalladi.  
 B) AQSh Kongressi tomonidan Konstitutsiyaga tuzatish kiritildi.  
 C) Parij Kommunasi tashkil topdi.  
 D) Turkiston general-gubernatorligi tashkil topdi.
- 54.** Quyidagi atamalarning qaysi tildan olinganligini aniqlang.  
 1) immigrant; 2) industriya; 3) migratsiya;  
 a) lotin; b) yunon; c) ingлиз; d) fransuz; e) nemis; f) ispan  
 A) 1 - a; 2 - c; 3 - e    B) 1 - d; 2 - a; 3 - f  
 C) 1 - a; 2 - a; 3 - a    D) 1 - b; 2 - c; 3 - b

55. Buyuk Britaniya hukumati o'zining Markaziy Osiyo xonliklaridagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li sifatida nimaga ahamiyat qaratgan?
- Erondan platsdarm sifatida foydalanishga
  - Hindiston bilan Markaziy Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga
  - Markaziy O'siyo xonliklarini harbiy yo'l bilan o'z tasarrufiga o'tkazishga
  - Markaziy Osiyo xonliklari hududida istehkomlar qurishga
56. Ismoil G'aspirali tomonidan Boqchasaroypda va Buxoro amirligida birinchi jadid maktablari ochilgan yillarni toping.
- 1884, 1893-yillar
  - 1888, 1894-yillar
  - 1888, 1893-yillar
  - 1884, 1894-yillar
57. Rim qachon Alarix boshchiligidagi gotlar tomonidan talon-taroj qilingan?
- 455-yilda
  - 476-yilda
  - 422-yilda
  - 410-yilda
58. Ikkinci jahon urushi davrida Yevropadagi ittifoqchi qo'shinlarga qo'mondonlik qilgan, urush tugagandan keyin AQShda prezident etib saylangan shaxsni aniqlang.
- U.Garding
  - D.Eyzenxauer
  - G.Trumen
  - F.Ruzvelt
59. Yevropaning kuchli mustamlakachi davlatlari tomonidan afrikaliklarni qullikka sotish qachongacha davom etgan?
- XX asr boshlarigacha
  - XIX asr o'rtalarigacha
  - XIX asr boshlarigacha
  - XVIII asr o'rtalarigacha
60. O'zbekistonning qaysi viloyatida Xitoyning "Nunkel" firmasi bilan hamkorlikda yo'g'och tolali plita ishlab chiqarish yolga qo'yildi?
- Namangan
  - Qashqadaryo
  - Samarqand
  - Jizzax
61. Nima sababdan AQSh Shimoliy Koreyaga qarshi urush harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi?
- SSSRning Koreya urushiga aralashishi mumkinligi aniq-ravshan bo'lib qolishi
  - BMTda AQShning aggressor davlat sifatida qoralanishi
  - Xitoy Xalq Respublikasining Janubiy Koreyaga harbiy yordam ko'rsatishi
  - Sovet qo'shinlarining Shimoliy Koreyaga kiritilishi
62. Italiya tarixiga oid birinchi jahon urushi natijalari bilan bog'liq ma'lumotlarni toping.
- Janubiy Tirol va Triest porti Italiyaga o'tdi.
  - Eypen va Morelle okruglari Italiyaga o'tdi.
  - Germaniya to'laydigan reparatsiyaning 0,8%iga ega bo'ldi.
  - Yugoslaviyaning ba'zi hududlari Italiyaga berildi.
  - Dodekanes oroli Italiya o'tdi.
  - Millatlar Ligasining doimiy a'zosiga aylandi.
  - Yaponiya harbiy-dengiz floti qudratiga teng flotga ega bo'lish huquqi berildi.
  - Fransiya harbiy-degiz floti qudratiga teng flotga ega bo'lish huquqi berildi.
- 2, 3, 5, 6, 7
  - 1, 2, 3, 5, 8
  - 1, 4, 5, 6, 8
  - 1, 3, 4, 6, 7
63. Vizantiyada Yustinian I ning hukmronlik yillarini aniqlang.
- 715-741-yillar
  - 481-511-yillar
  - 463-555-yillar
  - 527-565-yillar
64. Anglosakson solnomasi qaysi hukmdor davrida tuzila boshlangan?
- Genrix VI
  - Buyuk Alfred
  - Richard II
  - Amrosiy Avrelian
65. Xitoy tarixiga oid quyidagi ma'lumotlardan qaysi biri boshqalariga nisbatan keyinroq yuz bergenini toping.
- Xitoyning Shandun viloyati Germaniya ta'sir doirasiga o'tdi.
  - Shimoliy Xitoyda birinchi temiryo'l ishga tushirildi.
  - Xitoy Buyuk Britaniya bilan imzolagan konvensiyaga muvofiq Buyuk Britaniya Xitoyning 10 dan ortiq bandargohlariga erkin kirish, qator viloyatlarda erkin savdo qilish huquqini oldi.
  - Xitoy Markaziy Vyetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi.
66. Ulug'bek rasadxonasing ulkan sekstanti o'rnatilishida qaysi olim boshchilik qilgan?
- Qozizoda Rumiy
  - Alouddin Ali Qushchi
  - G'iyosiddin Jamshid Koshoniy
  - Shamsiddin Muhammad Havofiy
67. Quyida keltirilgan ta'rif qaysi davlat haqidaligini toping. "... XX asr boshida ishlab chiqarish sanoati yo'q qoloq davlat bo'lib qolaverdi; soliqlar pul bilan emas, mahsulot sifatida olinardi".
- Afg'oniston
  - Xitoy
  - Argentina
  - Braziliya
68. Quyida berilgan voqealardan bir yilda bo'lib o'tganlarini toping.
- BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi.
  - Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topdi.
  - O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuzildi.
  - IV Butun Xorazm qurultoyida respublikaning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi.
  - Moskvaga ma'qul kelmagani uchun P.Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadrahimov bosh bo'lgan XXSR hukumati tarkibi bekor qilindi
- 2, 3, 4
  - 1, 3, 4
  - 1, 2, 5
  - 3, 4, 5
69. Andijonda Dukchi eshon qo'zg'oloni ko'tarilgan vaqtida Turkiston general-gubernatori bo'lgan shaxsni aniqlang.
- A.Vrevskiy
  - A.Kuropatkin
  - S.Duxovskoy
  - N.Korolkov
70. Quyidagi qaysi oliy o'quv yurtlari XX asrning 70-yillarida tashkil etilgan?
- Nukus davlat universiteti va Toshkent avtomobil yo'llar instituti
  - Toshkent elektrotexnika aloqa va Toshkent fizkultura institutlari
  - Toshkent pediatriya va Andijon tillar pedagogika instituti
  - Andijon paxtachilik va Sirdaryo pedagogika institutlari
71. IV asrning o'rtalarida xion qabilalarining O'rta Osiyoga hujumi qaysi hududlardan boshlanganligini aniqlang.
- Yettisuv va Sirdaryo bo'ylaridan
  - Yettisuv va Sharqiy Turkistonidan
  - Oltoy va Yettisuvdan
  - Xorazm va Sirdaryo bo'ylaridan
72. Birinchi afg'on-ingliz urushi nechanchi yilda tugagan?
- 1841-yil
  - 1843-yil
  - 1842-yil
  - 1839-yil

## INGLIZ TILI

73. Choose the answer which correctly completes the sentence.
- Our college is near the railway station
  - Oh, it ... be noisy during classes.
  - A) can
  - B) ought to
  - C) may
  - D) must
74. Choose the best answer.
- If I had known about your problem, I ... it.
- A) wouldn't have let you to do
  - B) wouldn't have let you do
  - C) wouldn't let you do
  - D) didn't let you do

- 75.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
I expect I ... all night. I've got lots of work. And I'm not looking forward to it.  
A) will have worked    B) have worked  
C) shall be working    D) worked
- 76.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
We studied sculpture because we enjoyed ... with clay.  
A) to be working    B) to work    C) working  
D) to have worked
- 77.** Choose the suitable linking word.  
Someone had removed all the evidence. ... it was now impossible for the police to continue their investigation.  
A) Whereas    B) Thus    C) Besides    D) Although
- 78.** Choose the correct answer.  
... unemployed are people who have no job.  
A) –    B) An    C) The    D) Those
- 79.** Choose the correct answer.  
I couldn't understand ...  
A) whose she was addressing to  
B) to who she was addressing  
C) who she was addressing to  
D) whom she was addressing
- 80.** Choose the correct answer.  
How often ... in love in your life?  
A) have you been    B) were you being    C) are you  
D) were you
- 81.** Choose the correct answer.  
You didn't believe what he had said, did you? He made the whole thing.... .  
A) about    B) down    C) up    D) out
- 82.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
Because his map was very ..., he couldn't find the way to my house.  
A) confusion    B) confused    C) confuse    D) confusing
- 83.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
Boris is getting old. He hardly goes anywhere now, ... he?  
A) doesn't    B) is    C) does    D) isn't
- 84.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
This meal doesn't taste as ... as my mother's meal.  
A) well    B) better    C) best    D) good
- 85.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
If you ... offered the part in the film at that time, you might be a star now.  
A) were    B) had    C) had been    D) -
- 86.** Choose the correct answer.  
You are working too slowly. You'd better work ... !  
A) a bit faster    B) more fast    C) a piece faster  
D) a bit more fast
- 87.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
At last we found the story: the story ... had won the contest in our grade.  
A) that    B) what    C) who    D) when
- 88.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
Shakhnoza encouraged me ... away my old running shoes with holes and got me to buy a new pair.  
A) threw    B) throw    C) to throw    D) thrown
- 89.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
Nobody paid attention to the ... child at that time.  
A) crying    B) having cried    C) cried    D) be crying

- 90.** Choose the right answer.  
If the blind leads the blind, ... will fall into the ditch.  
A) some    B) every    C) both    D) none
- 91.** Choose the right answer.  
At first I thought I ... the right thing, but I soon realized that I ... a serious mistake.  
A) did/ had made    B) had done/ had made  
C) did/ made    D) have done/ have made
- 92.** Choose the answer which correctly completes the sentence.  
– Did you like the white dresses?  
- Yes, but the red dresses are ... the white ones.  
A) cheaper    B) twice as cheap as    C) twice cheaper than  
D) cheap as
- 93.** Choose the best answer.  
Animals do not possess the power ... speech.  
A) in    B) of    C) at    D) over
- 94.** Choose the best answer.  
Years ago children ... down mines at the age of six.  
A) may send    B) might send    C) might be sent  
D) could send
- Read the text. Then choose the correct answer for each question below (95-98).  
Salt is a mineral that consists mostly of sodium chloride (NaCl). It is an essential nutrient for animals, yet it is toxic to most plants. Saltiness is one of the basic tastes perceived by the tongue, making it an esteemed and ubiquitous food flavoring. It also "retains vegetables" vivid colors when parboiling, removes bitterness from salad greens, freezes ice cream, quickly cools boiling water, maintains the freshness of cut flowers, removes stains on clothing, alleviates pain in your neck, is an ingredient in soap, according to Jo. Darlene McFarlane in her article "Household Uses for Table Salt" recommends testing an egg's freshness by placing it in a cup of salt water. An egg that floats is not fresh. Ants will not **venture** onto a salt-covered surface, according to Mc Farlane, so she suggests sprinkling it on windowsills and in doorways to repel them from your residence.
- 95.** The author's purpose is to...  
A) discuss the use of salt as a pesticide.  
B) describe the harm of salt for flora.  
C) enumerate the myriad uses of salt.  
D) explain the etymology of the word "salt."
- 96.** What does the word "venture" in bold mean?  
A) to risk    B) to attract    C) to approach    D) to crawl
- 97.** Which sentence is not true according to the passage?  
A) Salt intensifies the ache in your body.  
B) Salt allows food bright appearance.  
C) Salt is a significant nourishment for animals.  
D) Salt is a helpful substance in household.

98. According to the passage if you want to verify worthiness of an egg you...

- A) can bring it to boil.
- B) can put on the windowsills.
- C) can crack it immediately.
- D) can put it into saline water.

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (99-102).

